

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi tomonidan
2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar va sohani
rivojlantirish bo‘yicha takliflar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

I. Amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar.

Respublikada qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash sohasida hisobot davrida jami **2 376 ta** tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritdi yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan rasmiy faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlar **1,3 baravarga ko‘paydi**.

Ushbu tadbirkorlik subyektlariga jami 3 343 ta (140,4%) ruxsatnomalar taqdim etilgan (affinaj sohasiga – 21 ta, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish sohasiga – 830 ta, savdo sohasiga – 1912 ta hamda qimmatbaho metallar va toshlardan foydalanish yo‘nalishlariga – 580 ta).

2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi (Asillik inspeksiyasi) tomonidan zargarlik buyumlarining asillik darajasini belgilash va ularni tamg‘alash, tahlillar o‘tkazish va boshqa xizmatlarni bajarish uchun jismoniy va yuridik shaxslar bilan tuzilgan **656 ta** shartnoma asosida, jami **5 672,6 mln. so‘mlik** yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,2 barobarga ko‘p** tushum ta‘minlandi.

Shuningdek, litsenziya berish va xabardor qilish faoliyatlari bo‘yicha **173,9 mln. so‘m** (*1,4 barobor ko‘p*) mablag‘ kelib tushdi.

Jismoniy va yuridik shaxslardan texnik ekspertiza tayinlash, asillik darajasini aniqlash va tamg‘alash uchun topshirilgan zargarlik va boshqa buyumlarning soni **251 681 donani** (*1,23 barobor ko‘p*) umumiy og‘irligi **1 451,3 kgni** (*1,27 barobor ko‘p*) tashkil etdi.

Markaziy laboratoriya tomonidan tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan **139 dona** yoki **46,9 kg** buyumlarning (**daliliy ashyolar, sanoat korxonalarining namunalari**) laboratoriya tahlillari qilindi.

Zargarlik va boshqa buyumlarni ishlab chiqarish hamda sotish huquqiga ega tadbirkorlik subyektlariga asillik darajasini aniqlash uchun **42 370 ml. reaktivlar tayyorlandi** (*1,55 barobor ko‘p*).

Gemmologiya va qimmatliklarni ekspertiza qilish boshqarmasi tomonidan **40 387 dona** vazni **352,6 kg** qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarning texnik ekspertiza tahlillari o‘tkazildi yoki o‘tgan yilga nisbatan mos ravishda **3,3 barobar** va **2,8 barobar ko‘p**.

Tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash faoliyatini yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga **936 ta** tasdiqnomalar va affinaj faoliyatiga **8 ta** litsenziya berildi.

O‘zbekiston Respublikasini “Kimberli jarayoni” halqaro olmoslar aylanmasini nazorat qilish tashkilotiga a‘zoliqi.

Butunjahon “Kimberli jarayoni” halqaro olmoslar aylanmasini nazorat qilish tashkilotining 21 - yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasining Kimberli jarayoniga qo‘shilish bo‘yicha murojaati ijobiy ko‘rib chiqilib, Kimberli jarayoniga qo‘shilgan **60 davlat qatorida qabul qilindi**.

“Kimberli jarayoni” xalqaro olmoslar aylanmasini nazorat qilish tashkilotining respublikadagi **vakolatli organi sifatida Asillik inspeksiyasi** e‘tirof etildi.

Asillik inspeksiyasi tomonidan Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tadqiqotlari markazi bilan hamkorlikda, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagi “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 200-sonli qaroriga asosan, olib qo‘yilgan va davlat daromadiga o‘tkazilgan **qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning qiymatini hisoblash shkalasi** har chorakda tasdiqlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2024-yil 14-noyabrdagi “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-184-son Farmoniga asosan Asillik inspeksiyasi tomonidan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi joriy etilib, tekshiruv va profilaktika tadbirlarini tashabbus etish ushbu tizim natijalari asosida amalga oshirilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-104-son Farmoniga asosan Toshkent shahri, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarining zargarlik markazlarida Zargarlik buyumlarining asilligini tezkor tekshirish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi shoxobchalar faoliyat yuritmoqda.

Mazkur shoxobchalar faoliyati bilan aholini yaqindan tanishtirish hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga qonunchilikning mazmun-mohiyatini yaqindan tushuntirish va muammolarni yechimiga ko‘maklashish maqsadida Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Toshkent shahrida uchrashuvlar tashkil etildi.

Barcha shoxobchalar zargarlik buyumlarining asillik darajasini tezkor aniqlovchi zamonaviy ekspress–tahlil elektron uskunalari bilan ta‘minlangan bo‘lib, hisobot davrida qimmatbaho metallardan yasalgan **5 808 dona** zargarlik buyumlarining asillik darajalari aniqlandi va aholiga **101,3 mln.** so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan elektr energiya va tabiiy gazni tejash bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xarita”sining ijrosini ta‘minlash maqsadida, Asillik inspeksiyasi bino va inshootlaridagi yoritish chiroqlariga harakat datchiklari o‘rnatildi hamda energiya tejankoriga almashtirildi.

Hisobot davrida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida **18 ta** xodimni o‘qitish va malakasini oshirish maqsadida **184,1 mln.** so‘mlik mablag‘lar yo‘naltirildi.

Asillik inspeksiyasi xodimlarining **5 nafari xalqaro toifadagi sertifikatlar**ga ega.

II. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi va ijro intizomi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentyabrdagi PQ-374-son qarori bilan tasdiqlangan “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar va profilaktika tadbirlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizamning 52-bandiga asosan, Asillik inspeksiyasining tadbirkorlik subyektlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va ularni bartaraf etish choralari ko‘rish maqsadida, 2025-yil 4-choragi uchun o‘tkaziladigan profilaktika tadbirlarining **Reja-grafigi tasdiqlandi.**

Tasdiqlangan reja-grafikka asosan jami **1032 ta** joriy yil boshidan **1679 ta** tadbirkorlik subyektiga profilaktika tadbirlari o'tkazildi hamda "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga joylashtirildi.

Shu bilan birga, Asillik inspeksiyasi tomonidan (Biznes vakilni) xabardor etish orqali savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi **53 ta** tadbirkorlik subyektlarida "Yagona davlat nazorati" tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan tekshiruvi hamda mutassadi idoralar bilan birgalikda **3 ta** nazorat tadbiri o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-martdagi "Qimmatbaho metallarni birja savdolarida sotishda chegirmalar berish uchun zargalik buyumlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida"gi 109-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, "O'zbekzargarsanoati" uyushmasi bilan hamkorlikda "Gold moon Tashkent" MCHJ, "Termez Gold Production" MCHJ, "Global universal servis" MCHJ, "Sofizar" MCHJ, "Luxury Diamond" MCHJ va "East Jewellery" MCHJ tashkilotlari joyida o'rganilib, chegirmalar berish bo'yicha tegishli **xulosalar taqdim etildi**.

Hisobot davrida Asillik inspeksiyasiga **4 988 dona** topshiriq va xatlar, shundan Prezident Administratsiyasidan **98 ta**, Vazirlar Mahkamasidan **217 ta**, vazirlik va idoralardan **561 ta** hamda tadbirkorlik subyektlari va boshqa tashkilotlardan **1930 tani** tashkil etdi va tegishliligi bo'yicha o'z muddatida ijrosi ta'minlandi.

III. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida mavjud qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va sohani rivojlantirish yuzasidan takliflar.

1. Asillik inspeksiyasi bevosita ishtirokida **5 ta** normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi, shundan 2 ta Qonun loyihasi (ID-1756 va ID-6542), 2 ta Vazirlar Mahkamasi qarori (ID-7238 va ID-100424) va farmoyishi loyihasi (XDFU). Mazkur hujjatlarning barchasi bugungi kunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasiga oid vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan jami **24 ta** normativ huquqiy hujjatlar loyihalari ko'rib chiqilib, munosabat bildirildi, shundan 3 ta Qonun loyihasi, 10 ta Prezident farmoni va qarorlari, 7 ta Vazirlar Mahkamasi qarori va 4 ta ichki idoraviy hujjatlar (Markaziy bank, Bosh prokuratura, Tovar-xom ashyo birjasi hamda "Navoiyazot" AJ loyihasi).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-iyunda "Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-207-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda, 2025-yil 1-sentyabrdan boshlab Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida zargarlik buyumlarining asillik darajasini tekshirish va ularni tamg'alash bo'yicha sayyor xizmat ko'rsatish amaliyotini yo'lga qo'yish;

Toshkent shahridagi "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi hududida Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasining zargarlik buyumlarining asillik darajasini tekshirish va ularni tamg'alash bo'yicha filialini tashkil qilish vazifasi yuklatilgan.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, Asillik inspeksiyasiga yuklatilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda to'laqonli ijrosini ta'minlash uchun:

mavjud shtat birliklari soni yetarli emasligini e'tiborga olgan holda, qo'shimcha ravishda **18 ta** shtat birligini ajratish;

zargarlik buyumlarining asillik darajasini tekshirish va ularni tamg'alash bo'yicha sayyor xizmat ko'rsatish amaliyoti uchun maxsus jihozlangan laboratoriya avtotransport vositasi bilan ta'minlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi "Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 258-son qaroriga tegishli o'zgartirish kiritish talab etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF-104-sonli Farmoni 6-bandi, b) kichik bandiga asosan, Asillik inspeksiyasining zargarlik buyumlarining asilligini tezkor tekshirish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi shoxobchalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shu munosabat bilan, ushbu Farmonning 6-ilovasi 5-bandida Asillik inspeksiyasining boshqaruv xodimlarining cheklangan soni **39 tadan 49 taga** ko'paytirildi.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining shtat birliklari sonini tartibga solishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 22-oktyabrdagi PF-165-sonli Farmonda shtat birliklari 38 taga tushirildi.

Bu esa o'z navbatida, 2024-yil 23-iyuldagi PF-104-sonli Farmon bilan yuklatilgan vazifalarni to'laqonli ijrosini ta'minlash imkoniyatini cheklab qo'ydi.

Asillik inspeksiyasining boshqaruv xodimlarining cheklanganligi bois, qimmatbaho metallar, qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarni tahlil qilish hamda ularning asillik darajasini nazorat qilish ishlari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari bilan muzokaralar o'tkazilib, ular bilan o'zaro hamkorlik haqidagi Memorandum asosida Toshkent shahri, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida shoxobchalar ishga tushirildi.

Ushbu shoxobchalar tomonidan aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida, ularga zargarlik buyumlarining asillik darajasini tezkor aniqlovchi qiymati **1 525,5 mln.** so'mlik zamonaviy ekspress-tahlil elektron uskunalari ijara shartnomasi asosida Asillik inspeksiyasi hisobidan beg'araz foydalanishga berilishini taqozo etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va savdo aylanmasida qonunchilikni ta'minlash, ularning ichki bozorda noqonuniy aylanmasini va yashirin iqtisodiyotni oldini olishga qaratilgan hamda "Kimberli jarayonini sertifikatlash sxemasi" bo'yicha bir qator tashkiliy va amaliy ishlarni bajarish uchun Asillik inspeksiyasi boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini **38 tadan 49 taga qaytarish** (PQ-207 qarori ijrosi uchun qo'shimcha 18 ta jami 67 ta) **maqsadga muvofiq.**

4. Huquq-tartibot idoralari tomonidan taqdim etilgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zargarlik buyumlari shu jumladan, o'ta yuqori qiymatga ega eksklyuziv buyumlar bo'yicha Asillik inspeksiyasi tomonidan ekspertiza xulosalari berib kelinmoqda.

Bu esa o'z navbatida, mutaxassislariga o'z ishlariga o'ta mas'uliyat va javobgarlik bilan yondashishni taqozo etadi.

Mas'uliyatga nisbatan mehnatga xaq to'lashdagi nomutanosiblik sababli malakali mutaxassislarni jalb etishga imkoniyat bo'lmayapti.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-avgustdagi 677-son qaroriga asosan, Asillik inspeksiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etilishi belgilab o‘tilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Asillik inspeksiyasiga yuklatilgan vazifalarning maxsus xususiyatligi, ish joyining o‘ta muhim toifalangan obyektlarning maxfiylikka oid tartib-qoidalariga amal qilinishi va sohada malakali mutaxassislarni qo‘nimligini ta‘minlash hamda xodimlar zimmasidagi mas‘uliyatni yuqoriligini e‘tiborga olgan holda, korrupsion holatlarni oldini olish, ularning xizmat faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi xodimlariga belgilangan mehnatga haq to‘lash shartlarini qonunchilikka muvofiq tatbiq etilishida amaliy yordam so‘raladi.

5. Asillik inspeksiyasining logotipi ishlab chiqilgan bo‘lib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kelishish uchun taqdim etilgan, lekin hanuzgacha kelishilmagan. Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida, Asillik inspeksiyasining elektron belgisi (logotipi)ni kelishish jarayonini tezlashtirish zarur.

6. **Zargarlik buyumlarini** ishlab chiqarish va savdo aylanmasini kuzatib borilishni ta‘minlash hamda ularning ichki bozorda noqonuniy aylanmasini oldini olish maqsadida **majburiy raqamli markirovkalashni joriy qilinishi taqozo etadi.**

Bunda, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi “Markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 737-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar ro‘yxati”ga qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlarini kiritish maqsadga muvofiq.

DAVLAT ASILLIK DARAJASI NAZORATI INSPEKSIYASI

2025-yil yakuni bo'yicha ma'lumot

VAZIFA VA FUNKSIYALAR

- ▶ Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar faoliyati sohasida **davlat siyosatini ishlab chiqish, qonun hujjatlariga** rioya qilinishi ustidan **davlat nazoratini** amalga oshirish;
- ▶ Mineral xom ashyodan qimmatbaho metallarni texnologik jarayonlarda, qayta ishlashda **ajratib olish, ishlab chiqarish**, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarni **sotib olish** va **sotish ustidan nazorat qilish**;
- ▶ **Asillik darajasini** aniqlash va ularga **davlat tamg'alarini** qo'yish;
- ▶ **Normativ-huquqiy hujjatlar** ishlab chiqish;
- ▶ **Nazorat qilishni ta'minlash** masalalarida **davlat** va **xo'jalik boshqaruvi organlari**, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan **hamkorlik** qilish.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorism va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida (FATF)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasining" 13-bandiga asosan, JFODLTM bilan bog'liq tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash natijalari asosida shakllantirilgan chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilmoqda.

AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR



Qabul qilingan qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlar:

Asillik darajasini aniqlash va tamg'alash uchun **219 169** dona (1 095,16 kg.);
Ekspertiza va tahlil analiz uchun **33 452** dona (397,47 kg.).



Markaziy laboratoriyada o'tkazilgan tahlillar **139** dona Tayyorlangan reaktivlar **42 370** ml



Ekspertizadan o'tkazilgan buyumlar (daliliy ashyolar) **40 387** dona (352,55 kg.)



Asillik darajasini belgilash va tamg'alash **251 681** dona (1 451,35 kg.);



Litsenziya va xabarnomalar:

Affinaj faoliyati: **8** ta.
Tasdiqlangan xabarnomalar **936** ta.
Shulardan:
qimmatbaho metallar va toshlar bilan ishlash faoliyati **144** ta;
zargarlik faoliyati **178** ta;
zargarlik buyumlarini sotish faoliyati **614** ta.



Ijro intizomi

Vazirlik va idoralardan kyelib tushgan topshiriq va murojaatlar: **4 988** ta
Shulardan:
Ijro uchun: **4 642**
Ma'lumot uchun: **347**
Bajarilmagan mavjud emas.



Nazorat-taftish:

Tasdiqlangan profilaktika rejasiga asosan, **1 679 ta** tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari o'tkazildi, faoliyatga oid ma'lumotlar jamlangan flayerlar tarqatildi
Bosh prokuraturasi Departamenti tomonidan SHAXSIY KABINET platformasi yaratilishi munosabati bilan, JFODLTM bog'liq ma'lumotlarni yetkazish va olish uchun shaxslarni hamda ularning mas'ul shaxslarini platformada qayta ro'yxatdan o'tkazilmoqda hamda bugungi kunda **475 ta** tadbirkorlik subyekt kiritildi
Shuningdek, **Nazorat-taftish boshqarmasi** tomonidan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida faoliyat yuritishda qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan **533 ta** tadbirkorlik subyektlari faoliyatida nazorat tadbirlari o'tkazildi.

2025 yil yakuni bo'yicha asillik darajasini aniqlash va tamg'alash uchun to'langan to'lovlar:
5 498.65 mln. so'm


**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati tomonidan
2025-yil davomida zargarlik buyumlarini asillik darajasini aniqlash va tamg'alash uchun hisoblangan hamda
to'langan to'lovlar to'g'risida tezkor
M A ' L U M O T**

01.01.2026-yil holatiga


(mln. so'mda)

№	Faoliyat turi	Tuzilgan shartnomalar soni	Jami to'langan summa	shu jumladan																Litsenziya va xabardor qilish to'lovlari
				I chorak	shundan			II chorak	shundan			III chorak	shundan			IV chorak	shundan			
					Yanvar	Fevral	Mart		Aprel	May	Iyun		Iyul	Avgust	Sentabr		Oktabr	Noyabr	Dekabr	
1	YATT	10	8,4	1,8	0,5	0,7	0,6	2,8	1,2	0,7	0,9	1,1	0,7	0,2	0,2	2,6	1,4	0,5	0,8	174,0
2	MCHJ	351	3 648,6	381,3	108,4	110,7	162,2	605,8	164,2	65,3	376,3	2 261,4	552,1	928,0	781,3	400,1	289,8	71,1	39,1	
3	AJ	4	8,7	3,1	3,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	3,1	3,1	0,0	0,0	2,5	0,0	0,0	2,5	
4	Jismoniy shaxs	215	451,7	156,8	25,9	43,7	87,3	155,3	119,6	23,3	12,3	136,1	11,5	80,2	44,4	3,4	1,5	0,2	1,8	
5	MIB	0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	
6	Davlat organi	16	709,2	23,4	21,0	1,4	1,0	29,1	0,9	5,0	23,2	22,3	8,8	11,8	1,7	634,4	10,4	336,3	287,6	
7	Mikrokredit va lombardlar	60	667,3	155,2	44,0	51,6	59,6	167,3	76,5	49,1	41,6	207,0	66,0	65,3	75,6	137,9	52,6	42,2	43,1	
2025-yil jami		656	5 494,0	721,7	202,9	208,1	310,7	960,3	362,5	143,5	454,3	2 631,0	642,3	1 085,5	903,2	1 181,0	355,7	450,3	375,0	174,0
2024-yil jami		578	4 417,5	744,6	384,9	224,2	135,6	687,0	146,1	262,1	278,9	1 352,2	182,3	612,7	557,2	1 633,7	761,5	487,5	384,7	122,3

Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi tomonidan
2021-2025 yillar mobaynida tuzilgan shartnomalar hamda tushumlar to'g'risida
MA'LUMOT



Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi tomonidan
2021-2025 yillar davomida asillik darajasini aniqlash va tamg'alash hamda boshqa xizmatlar bo'yicha
tushgan tushumlar to'g'risida
MA'LUMOT



	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
2021-yil	28,1	39,4	101,4	72,4	43,5	122,7	39,9	30,8	15,9	37,2	94,5	57,2
2022-yil	132,2	90,6	102,7	129,5	114,8	79,0	82,6	89,4	296,1	818,6	373,4	258,1
2023-yil	137,4	291,8	347,2	110,6	306,8	216,0	192,1	166,5	243,4	211,7	264,7	193,5
2024-yil	384,9	224,2	135,6	146,1	262,1	278,9	182,3	612,7	557,2	761,5	487,5	384,7
2025-yil	202,9	208,1	310,7	362,5	143,5	454,3	642,3	1085,5	903,2	355,7	450,3	375,0

● 2021-yil ● 2022-yil × 2023-yil ● 2024-yil × 2025-yil